

**O'zbekiston Respublikasining
Energetika vazirligi**

**Ijtimoiy soha ob'ektlarda energiya
samaradorligini oshirish
(P176060)**

**EKOLOGIK VA IJTIMOY MAJBURIYATLAR
REJASI (EIMR)
Loyiha**

2022 yil mart

ECOLOGIK VA IJTIMOY MAJBURIYATLAR REJASI

1. O'zbekiston Respublikasi (Qarz oluvchi) Energetika Vazirligi (EV) huzuridagi Tarmoqlararo energiya tejash jamg'armasini (Jamg'arma) jalb qilgan holda Moliyaviy Shartnomada ko'rsatilgan O'zbekistonda "Ijtimoiy soha ob'ektlarda energiya samaradorligini oshirish" (P176060) Loyhasini (Loyiha) amalga oshiradi¹. EV va Jamg'arma o'rta muddatli ko'rib chiqish bosqichigacha Loyihani amalga oshirish maqsadida Loyihani Boshqarish Kompaniyasini (LBK) yollaydi, bundan so'ng esa Jamg'arma yoki uning tayinlangan vorisi loyihani amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Xalqaro Taraqqiyot Uyushmasi (Uyushma) ko'rsatilgan shartnomada ko'rsatilganidek, Loyihani moliyalashtirishni ta'minlashga rozilik berdi.
2. Qarz oluvchi Loyihaning Ekologik va Ijtimoiy Standartlarga (EIS) va ushbu Ekologik va Ijtimoiy Majburiyatlar Rejasiga (EIMR) muvofiq, Uyushma uchun maqbul bo'lgan tarzda amalga oshirilishini ta'minlashi shart. EIMR Moliyaviy Shartnomasining bir qismidir. Agar ushbu EIMRda boshqacha belgilanmagan bo'lsa, ushbu EIMRda qo'llaniladigan bosh harflar bilan yozilgan atamalar ularga havola qilingan shartnoma(lar)da berilgan ma'nolarni anglatadi.
3. Yuqorida aytilganlar bilan cheklanmagan holda, ushbu EIMR Qarz oluvchi amalga oshirishi kerak bo'lgan yoki amalga oshirilishini ta'minlashi shart bo'ladigan muhim chora-tadbirlar va harakatlarni, jumladan, tegishli hollarda, chora-tadbirlar va harakatlarning muddatlari, institutsional, kadrlar bilan ta'minlash, o'qitish, monitoring va hisobot berish bo'icha chora-tadbirlar va shikoyatlarni boshqarish belgilaydi. EIMR, shuningdek, Loyiha doirasida qabul qilinadigan va amalga oshiriladigan ekologik va ijtimoiy (E-I) vositalarini belgilaydi, ularning barchasi EISga muvofiq va Uyushma uchun maqbul bo'lgan shakl, mazmun va tarzda, Uyushma bilan oldindan maslahatlashgan holda oshkor etilishi shart. Qabul qilingandan so'ng, mazkur E-I vositalari Uyushma tomonidan oldindan yozma kelishuv asosida vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqilishi mumkin.
4. Uyushma va Qarz oluvchi tomonidan kelishilgan holda, ushbu EIMR zarur hollarda vaqti-vaqti bilan kerak, Loyihani amalga oshirish jarayonida, Loyihadagi o'zgarishlarni va kutilmagan holatlarni adaptive boshqarishni aks ettirish uchun yoki Loyihaning bajarilishiga muvofiq qayta ko'rib chiqiladi. Bunday hollarda Qarz oluvchi EV va Uyushma orqali Uyushma va Qarz oluvchi o'rtasida imzolangan xatlar almashinuvi orqali ushbu o'zgarishlarni aks ettirish uchun EIMRni yangilashga rozilik beradi. Qarz oluvchi yangilangan EIMRni darhol oshkor qilishi shart.

¹ Jahon Banki tomonidan ushbu loyiha (P176060) "Binolar uchun toza energiya" deb nomlanadi.

MUHIM CHORA-TADBIRLAR VA HARAKATLAR		MUDDATLAR	MAS'UL TASHKILOT
MONITORING QILISH VA HISOBOT BERISH			
A	<p>MUNTAZAM RAVISHDA HISOBOT BERISH</p> <p>Loyihaning Ekologik va ijtimoiy sohasi, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi (EIMX) bo'yicha ko'rsatkichlarini muntazam monitoring qilish bo'yicha, shu jumladan, lekin cheklanmagan holda, EIMRni amalga oshirish, EIMR doirasida talab qilinadigan E-I vositalarini tayyorlash va joriy etish holati; manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish bo'yicha faoliyati, shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizm(lar)ining ishlashi va Loyiha tomonidan moliyalashtiriladigan subloyihalarning EIMX ko'rsatkichlari bo'yicha hisobotlarni tayyorlash va Uyushmaga taqdim etish.</p>	<p>Kuchga kirish sanasidan keyin boshlanadigan Loyihani amalga oshirish davomida Uyushmaga olti oylik hisobotlarni taqdim etish.</p> <p>Uyushmaga har bir hisobotni har bir hisobot davri tugaganidan keyin 30 kundan kechiktirmay taqdim etish.</p>	Jamg'arma/ LBK
B	<p>BAXTSIZ HODISALAR VA AVARIYALAR</p> <p>Loyiha bilan bog'liq atrof-muhitga, ta'sirlangan aholi yashash punktlari, aholi yoki ishchilarga, jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadigan yoki ko'rsatishi mumkin bo'lgan har qanday hodisa yoki avariya, jumladan, jinsiy ekspluatatsiya va zo'ravonlik (JEZ), shahvoniy shilqimlik (ShSH) holatlari, o'lim, jiddiy yoki ko'plab jarohatlarga olib keladigan baxtsiz hodisalar va yo'l-transport hodisalari to'g'risida Uyushmaga darhol xabar berish. Baxtsiz hodisa yoki avariyaning ko'lami, jiddiyligi va yuzaga kelishining mumkin bo'lgan sabablari, uni bartaraf etish uchun darhol ko'rilgan yoki ko'rilishi rejalashtirilgan chora-tadbirlar va tegishli ravishda har qanday pudratchi va/yoki nazorat qiluvchi firma tomonidan taqdim etilgan har qanday ma'lumot haqida yetarli tafsilotlarni taqdim etish.</p> <p>Keyinchalik, Uyushmaning iltimosiga binoan, baxtsiz hodisa yoki avariya to'g'risida hisobot tayyorlash va uni bartaraf etish va uning takrorlanishining oldini olish uchun har qanday choralarni taklif qilish.</p> <p>Pudratchilarning tender hujjatlariga baxtsiz hodisalar va avariya to'g'risida tezkor xabar berish pudratchilarning Ekologik va ijtimoiy boshqaruv rejasi (EIBR) ga kiritilgan bo'lib qolishi haqida qoida kiritish.</p>	<p>Baxtsiz hodisa yoki avariya haqida habar olgandan keyin 48 soatdan kechiktirmay Uyushmaga xabar berish.</p> <p>Uyushmaga bu haqda hisobotni Uyushma uchun maqbul bo'lgan muddatda taqdim etish</p> <p>Tender hujjatlarini tayyorlash vaqtida</p>	Jamg'arma/ LBK
C	<p>PUDRATCHILARNING CHORAKLIK HISOBOTLARI</p> <p>Barcha pudratchilardan tegishli tender hujjatlari va shartnomalarda ko'rsatilgan ko'rsatkichlarga muvofiq EIMX ko'rsatkichlari bo'yicha har choraklik monitoring qilish to'g'risida hisobotlarni taqdim etishlarini talab qilish va mazkur hisobotlarni Uyushmaga taqdim etish.</p>	<p>Har choraklik hisobotlarni yuqoridagi A chora-tadbiri bo'yicha taqdim etiladigan hisobotlarga ilova sifatida Uyushmaga taqdim etish.</p>	Jamg'arma/ LBK

MUHIM CHORA-TADBIRLAR VA HARAKATLAR		MUDDATLAR	MAS'UL TASHKILOT
EIS 1: EKOLOGIK VA IJTIMOY XAVFLAR VA TA'SIRLARNI BAHOLASH VA BOSHQARISH			
1.1	<p>TASHKILIY TUZILMA</p> <p>Loyihaning EIMX xatarlari va ta'sirini boshqarish va monitoringiga ko'maklashish maqsadida malakali xodimlar va resurslarga ega bo'lgan Loyiha Boshqaruvi bo'yicha Maslahatchini (LBM) tanlash va yollash, jumladan, kamida bir nafar atrof-muhit sohasi bo'yicha mutaxassis, bir nafar ijtimoiy soha bo'yicha mutaxassis, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi bo'yicha mutaxassis va bir nafar manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish bo'yicha mutaxassis.</p>	Loyihaning Kuchga kirish sanasidan oldin va keyin Loyihani amalga oshirish davomida LBM va mazkur lavozimlarni saqlab qolish. LBMni yollash bo'yicha texnik topshiriq muzokaralargacha ishlab chiqiladi.	MoE/Fund
1.2	<p>EKOLOGIK VA IJTIMOY VOSITALAR</p> <p>Loyiha uchun Jahon bankining Ekologik va ijtimoiy tuzilmasi (JB EIT) va barcha tegishli EISga mos keladigan Ekologik va ijtimoiy boshqaruv tuzilmasini (EIBT) tayyorlash va amalga oshirish.</p> <p>Loyiha EIBT ga muvofiq har qanday taklif qilingan subloyihaning EIMX risklari va muammolarini tekshirish. Tekshiruv natijalariga ko'ra, pudratchilar Uyushma uchun maqbul bo'lgan tarzda maydonga xos Pudratchining Ekologik va ijtimoiy boshqaruv rejalarini (Pudratchining EIBR) loyihalarini ishlab chiqadi, oshkor qiladi, ularning yuzasidan maslahatlashuvlar olib boradi va tegishli fikr-mulohazalarni ularga kiritib yakunlaydi. Pudratchining EIBR lari taklif etilayotgan binolar madaniy merosga tegishli yoki yo'qligini aniqlaydi va agar shunday bo'lsa, O'zbekiston milliy qonunchiligi va me'yoriy talablariga muvofiq ushbu binolarning himoya qilinishini ta'minlash uchun moslashtirilgan yumshatish choralari taklif qiladi.</p>	<p>EIBTni Uyushma uchun maqbul bo'lgan tarzda tayyorlash va Loyiha Muzokaralaridan oldin oshkor qilish, so'ngra Loyihani amalga oshirish davomida EIBT ni tadbiriq etish va yuritish.</p> <p>Tegishli qurilish ishlari bo'yicha tender jarayonini boshlashdan oldin Pudratchining EIBRni Uyushma uchun maqbul bo'lgan tarzda tayyorlash. Bank tomonidan ma'qullangandan so'ng, butun Loyihani amalga oshirish davomida amalga oshirish</p>	<p>Jamg'arma/LBK</p> <p>Jamg'arma/ LBK/Pudratchilar</p>
1.3	<p>PUDRATCHILARNI BOSHQARISH</p> <p>EIMRning tegishli jihatlarini, jumladan, EIBT, Mehnatni boshqarish tartib-taomillari, EIBR va axloq kodeksi kabi tegishli E-I vositalarini xaridlar hujjatlari va pudratchilar va nazorat qiluvchi firmalar bilan tuzilgan shartnomalarning EIMX spetsifikatsiyalariga Uyushma uchun ma'qul bo'lgan tarzda kiritish.</p> <p>Shundan so'ng pudratchilar va nazorat qiluvchi firmalarning o'zlari va subpudratchilari o'zining tegishli shartnomalarining EIMX spetsifikatsiyalariga rioya qilishlarini ta'minlash.</p>	<p>Xarid hujjatlari va tegishli shartnomalarni tayyorlash doirasida.</p> <p>Loyihani amalga oshirish davomida pudratchilarni nazorat qilish.</p>	Jamg'arma/LBK
1.4	<p>LAGga TEXNIK YORDAM</p> <p>Loyiha doirasidagi salohiyatni oshirish va boshqa har qanday texnik yordam ishlari doimiy ravishda LAG uchun mo'jallangan bo'lib EISlar bilan va Uyushma uchun maqbul bo'lgan</p>	Salohiyatni oshirish dasturini Uyushma uchun maqbul bo'lgan tarzda loyihalash va barcha tadbirlarni Loyihaning Kuchga kirish	Jamg'arma/LBK

MUHIM CHORA-TADBIRLAR VA HARAKATLAR		MUDDATLAR	MAS'UL TASHKILOT
	texnik topshiriqlarga muvofiq yetkazilishini ta'minlash. Keyinchalik, bunday faoliyat natijalari texnik topshiriqlarga muvofiqligini ta'minlash.	sanasidan 12 oy o'tgach yakunlash.	
1.5	PUDRATCHINING XODIMLARI Pudratchi EIMR, EIBT va tegishli yordamchi boshqaruv rejaları talablarini nazorat qilish uchun EIMX (Ekologik va ijtimoiy sohasi, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi) mutaxassis(-lar)ini tayinlaydi.	Loyihani amalga oshirish davomida	Jamg'arma/LBK/ Pudratchilar
EIS 2: ISHCH KUCHI VA MEHNAT SHAROITLARI			
2.1	MEHNATNI BOSHQARISH TARTIB-TAOMILLARI Loyiha uchun Mehnatni boshqarish tartib-taomillarini (MBT) tayyorlash va joriy etish, shu jumladan, mehnat sharoitlari, ishchilar o'rtasidagi munosabatlarni boshqarish, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi (shu jumladan shaxsiy himoya vositalari, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik va ularning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish va COVID-19 oldini olish choralari), axloq kodeksi (shu jumladan JEZ va ShSH bilan bog'liq), majburiy mehnat, bolalar mehnati, Loyiha ishchilari uchun shikoyatlarni ko'rib chiqish tartibi va pudratchilar, subpudratchilar va nazorat qiluvchi firmalar uchun tegishli talablar.	MBTni Uyushma uchun maqbul bo'lgan tarzda tayyorlash va loyiha muzokaralari oldidan oshkor qilish, so'ngra MBTni loyihani amalga oshirish davomida bajarish.	Jamg'arma/LBK
2.2	LOYIHA ISHCHILARI UCHUN SHIKOYATLARNI KO'RIB CHIQISH MEXANIZMINI Loyiha ishchilari uchun MBTda tavsiflangan va milliy qonunchilik va EIS2 talablariga javob beradigan shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmini (ShKM) yaratish va ishlatish. MBTda tavsiflangan va milliy qonunchilik va EIS2 talablariga javob beradigan pudratchilar tomonidan yollangan ishchilar uchun subloyiha darajasida shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmini (ShKM) yaratish va ishlatish.	Loyiha ishchilarini, pudratchilar tomonidan yollangan ishchilarni jalb qilishdan oldin shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmini yaratish va so'ngra uni loyihani amalga oshirish davomida yuritish va ishlatish.	Jamg'arma/LBK Jamg'arma/LBK/ Pudratchilar
EIS 3: RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA IFLOSLANISHNING OLDINI OLISH VA BOSHQARISH			
3.1	CHIQUINDILARNI BOSHQARISH REJASI Subloyiha darajasida xavfli (shu jumladan asbest) va xavfli bo'lmagan chiqindilarni boshqarish uchun EIS3 va EIBTga javob beradigan va chiqindilarni utilizatsiya qilish uchun milliy qonunchilik va EIBTga muvofiq tegishli byudjet ajratadigan maydon uchun maxsus subloyihaning Chiqindilarni boshqarish rejasini (ChBR) qabul qilish va amalga oshirish.	Xarid hujjatlarini va tegishli shartnomalarni tayyorlash doirasida va keyin loyihani amalga oshirish davomida ChBR ni amalga oshirish.	Jamg'arma/ LBK
3.2	RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA IFLOSLANISHNING OLDINI OLISH VA	EIBRni qabul qilish va amalga oshirish uchun	Jamg'arma/LBK/

MUHIM CHORA-TADBIRLAR VA HARAKATLAR		MUDDATLAR	MAS'UL TASHKILOT
	BOSHQARISH Resurslardan samarali foydalanish va ifloslanishning oldini olish va boshqarish choralarini hamda xavfli materiallarni boshqarish bo'yicha chora-tadbirlarni yuqoridagi 1.2-banddagi chora-tadbirlarga muvofiq tayyorlanishi kerak bo'lgan subloyihalar maydonchasi uchun maxsus qurilish bosqichidagi EIBRga kiritish.	berilgan bilan bir xil muddat	Pudratchilar
EIS 4 AHOLINING SALOMATLIGI VA XAVFSIZLIGI			
4.1	YO'L HARAKATI VA XAVFSIZLIGI Subloyiha darajasida yuqoridagi 1.2-bandga muvofiq tayyorlanishi kerak bo'lgan holda yo'l harakati, yo'l va aholi xavfsizligi xavflarini boshqarish uchun qurilish bosqichida maydonga xos qurilishdagi yo'l harakati va transportni boshqarish rejalarini ishlab chiqish, amalga oshirish va yuritish.	Subloyihalar uchun maydonga xos qurilish EIBRlarini qabul qilish va amalga oshirish bilan bir xil muddat.	Jamg'arma/ Pudratchilar LBK/
4.2	AHOLINING SALOMATLIGI VA XAVFSIZLIGI Subloyiha darajasida loyiha faoliyati natijasida kelib chiqadigan aholi yashash punktlari uchun salomatlik va xavfsizlikka oid muayyan xavflarni va ta'sirlarni baholash va boshqarish uchun maydonga xos chora-tadbirlar va harakatlarni qabul qilish va amalga oshirish, jumladan, ish soatlari va dam olish kunlarida cheklangan transport harakati hamda shovqin va tebranishlarni chiqaradigan boshqa faoliyatlar; yiqilish va qoqilib ketish xavfi, chegaralarni to'g'ri o'rnatish va monitoring qilish va ish joylariga ruxsatsiz kirishni cheklash; loyiha ishchilarining, shu jumladan xavfsizlik xodimlarining xatti-harakatlaridan kelib chiqadigan xavflar (agar mavjud bo'lsa) va yuqumli kasalliklar xavfi, shu jumladan COVID-19 tarqalishi.	Subloyihalar uchun maydonga xos qurilish bosqichidagi EIBRlarini tayyorlash va amalga oshirish bilan bir xil muddat.	Jamg'arma/LBK/ Pudratchilar
4.3	INFRASTRUKTURA VA USKUKLARNI LOYIHALASH VA XAVFSIZLIGI Izolyatsiya va ishlar tugatilgandan keyin qayta tiklash ishlari uchun barcha texnik spetsifikatsiyalar va materiallarning spetsifikatsiyalarini talab qilish, ularni xavfsiz va foydalanishga yaroqliligini ta'minlash uchun yong'in va hayot xavfsizligi to'g'risidagi qonun hujjatlari va ilg'or xalqaro sanoat amaliyotiga muvofiqligini maxsus tekshiruvdan o'tkazish shart.	Subloyihalarning batafsil loyihalash bosqichida	Jamg'arma/LBK
4.3	JEZ va ShSH XAVFLARI JEZ va ShSH xavflarini baholash va boshqarish uchun Pudratchining EIBR doirasida sifatida JEZ/ShSH bo'yicha harakatlar rejasi va axloq kodeksini tayyorlash, ular uzasidan maslahat ishlarini olib borish, oshkor qilish va so'ngra amalga oshirish.	Uyushmaga dastlabki ko'rib chiqish uchun JEZ/ShSH bo'yicha harakatlar rejasi taqdim etish va Uyushma hech qanday e'tirozlar bildirmagan taqdirda, xarid hujjatlarini tayyorlashdan oldin rejani qabul qilish va oshkor qilish. Qabul qilingandan so'ng,	

MUHIM CHORA-TADBIRLAR VA HARAKATLAR		MUDDATLAR	MAS'UL TASHKILOT
		Loyihani amalga oshirish davomida rejani amalga oshirish.	
EIS 8: MADANIY MEROS			
8.1	<p>MADANIY MEROS UCHUN XAVFLAR VA TA'SIRLAR</p> <p>Subloyiha darajasida milliy yoki mahalliy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha ekspertizadan o'tkazishni talab qilish va qandaydir xavflar yuzaga kelgan hollarda O'zbekiston Respublikasi Turizm va Madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi bilan maslahatlashish va ishlarni bajarish uchun tegishli ruxsat olish uchun milliy qonunchilikka amal qilish.</p>	Subloyihalarini batafsil loyihalash bosqichida	Jamg'arma/LBK
EIS 10: MANFAATDOR TOMONLAR BILAN HAMKORLIK QILISH VA MA'LUMOTLARNI OSHKOR QILISH			
10.1	<p>MANFAATDOR TOMONLAR BILAN HAMKORLIK QILISH REJASINI TAYYORLASH VA AMALGA OSHIRISH</p> <p>Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish rejasi (MTHR) loyihasi EIS10 ga muvofiq tayyorlangan bo'lib, unda, jumladan, manfaatdor tomonlarni o'z vaqtida, dolzarb, tushunarli va foydalanish mumkin bo'lgan ma'lumotlar bilan ta'minlash hamda ular bilan manipulyatsiya, aralashish, majburlash, kamsitish va qo'rqitishsiz madaniy jihatdan to'g'ri tarzda maslahat ishlarini amalga oshirish maqsadida choralar kiritilgan, va Loyiha uchun mos deb topilgan holda yangilanadi.</p>	<p>Uyushma uchun ma'qul bo'lgan MTHR loyihasi Loyihani Baholashdan oldin oshkor qilingan, so'ngra loyihani amalga oshirish davomida MTHRni amalga oshirish.</p> <p>Loyihaning kuchga kirish sanasidan oldin MTHR loyihagini qayta ko'rib chiqish va tegishli tarzda yangilash.</p>	Jamg'arma/LBK
10.2	<p>LOYIHANING SHIKOYATLARNI KO'RIB CHIQISH MEXANIZMI</p> <p>Loyiha va subloyiha darajasida (pudratchilar) muammolar va shikoyatlarni qabul qilish va hal etishda yordam berish uchun qulay bo'lgan, EIS10 va MTHRga muvofiq tarzda, madaniy jihatdan mos keladigan va loyihadan ta'sirlangan barcha tomonlarga osonlikcha kirish mumkin bo'lgan shaffof tarzda, hech qanday to'lovlarisiz, shu jumladan muammolar va shikoyatlarni anonim tarzda taqdim etishni nazarda tutadigan shikoyatlar mexanizmini yaratish, e'lon qilish, yuritish va boshqarish.</p> <p>Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi JEZ/ShSH shikoyatlarini qabul qilish, ro'yxatga olish va jabrlanganlarni tegishli jinsiy zo'ravonlik bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi provayderlarga xavfsiz, maxfiy va jabrlanganlarga yo'naltirilgan tazda yuborish orqali hal qilinishini osonlashtirish uchun tashkillashtirilishi shart.</p>	Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmini Loyihaning kuchga kirish sanasidan oldin yaratish, keyin esa loyihani amalga oshirish davomida mazkur mexanizmni yuritish.	Jamg'arma/LBK
SALOHİYATNI QO'LLAB-QUVVATLASH			

MUHIM CHORA-TADBIRLAR VA HARAKATLAR		MUDDATLAR	MAS'UL TASHKILOT
CS1	<p>Zarur bo'lganda Jamg'arma/LBKning tegishli xodimlari, manfaatdor tomonlari, aholiga, loyiha ishchilariga asosiy EIBT va tegishli ekologik va ijtimoiy masalalar bo'yicha treninglarni rejalashtirish va o'tkazish, jumladan:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Manfaaddor tomonlarni xaritalash va ular bilan hamkorlik qilish; • Ishchilar va aholi uchun shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmlari; • Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik ko'rish va bartaraf etish choralarini o'z ichiga olgan mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi; • Mehnatni boshqarish tartib-taomillari (LBT); • Ekologik va ijtimoiy sohasidagi tekshiruv va baholash • suboyiha E-I boshqarish rejalarini tayyorlash; • COVID-19 infeksiyasining oldini olish va nazorat qilish bo'yicha Tavsiyalar; • Chiqindilarni boshqarish va xavfli materiallar bilan ishlash; • Aholi salomatligi va xavfsizligi (yo'l harakati xavfsizligi); • EIMX monitoringi va hisoboti; • va boshqa tegishli mavzular. 	<p>Tegishli xodimlar (Jamg'arma/LBK xodimlari, Pudratchining ishchilari) ishga qabul qilish vaqtida o'qitilib, so'ngra yiliga kamida bir marta malaka oshirish kursidan o'tishlari shart.</p> <p>Loyihani amalga oshirish boshlanishidan oldin tegishli manfaatdor tomonlarga ko'rsatma berilishi shart.</p>	Jamg'arma/LBK/ Pudratchilar